SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4I9Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 9 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 9-son (Sentyabr, 2024). -400 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich*
RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .......... 10-14

*Azizbek Xolliyev*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .......... 15-20

*Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich*
SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .......... 21-25

*Eshimov Shaxridin Xujayorovich*
SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .......... 26-31

*Намазова Умида Нормурадовна*
ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .......... 32-41

*Самадов Искандар Исматович*
ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .......... 42-48

*Rustamova Madina Musoqulovna*
SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .......... 49-56

*Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna*
SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... 57-64

*Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li*
MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .......... 65-68

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tolipova Baxtigul*
MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI .......... 69-77

*Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI .... 78-83

*Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна*
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .......... 84-96

*Meliyeva Nargiza Eshboyevna*
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI .... 97-104

*Исраилов Рустам Ибрагимович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 105-109

*Jumaniyazov Inomjon To'raevich*
APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS ........ 110-120

*Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li*
MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI ........ 121-129

*Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi*
ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI........ 130-138

*Kalbayev Muratbay Aytbaevich*
AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI ........ 139-144

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna*
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ........ 145-155

*Ahrorova Shahlo O'rinboyevna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI ........ 156-161

*Рахманов Баҳодир*
АЛИШЕР НАВОИЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҒОЯЛАР ИНЪИКОСИ ........ 162-170

*Нуралиева Насиба Ахмадкуловна*
ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ ........ 171-176

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Fayzulloyev Otabek Muhamadovich*
KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA........ 177-184

*Токимбетова Гулбахор Абатбаевна*
ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР........ 185-190

*Yusupova Sadokat Alijon qizi*
"BOBURNOMA"NING YAPONIYADA O'RGANILISHI ........ 191-197

*Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi*
JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) ........ 198-201

*Tangriyev Valisher Azamovich*
SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: "ANOR" HIKOYASI MISOLIDA ........ 202-206

*Abulova Zilola Azimovna*
INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QOʻSHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI ........ 207-201

*Qurbonova Dilnoza Olimovna*
TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK........ 210-216

*Quljanova Toʻlgʻanoy Shodiyor qizi*
ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING OʻZIGA XOSLIGI ........ 217-221

*Babajanova Aziza Rustamovna*
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIIY TALQINI ........ 222-227

*Khursanova Laylo Bakhtiyarovna*
REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF “PATIENCE” IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES ........ 228-232

*Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi*
OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SOʻZ TURKUMI TADQIQI ........ 233-238

*Samadova Visola Baxtiyor qizi*
INGLIZ, OʻZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE’L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........ 239-242

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Тўлаганова Гулчехра Захитовна, Ғофурова Дилафруз Мурод қизи*
АЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 243-252

*Tosheva Maftuna Anvar qizi*
INSON A’ZOLARI VA TO’QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG’LIQ JINOYATLAR ........ 253-262

*Ikramov Sherzod Raximdjanovich*
VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA’MINLASHDAN BOʻYIN TOVLASHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 263-266

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Tohirova Mohigul Umir qizi*
KOʻRISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK OʻRGANISH. (L.I.VASSERMANNING “IJTIMOIY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI” ASOSIDA) ........ 267-274

*Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich*
OLIY HARBIY TA’LIMDA FIZIKA OʻQITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ........ 275-281

*Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna*
BOSHLANGʻICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI ........ 282-292

*Ashurova Marhabo Sayfulloyevna*
BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA OʻQITISH IMKONIYATLARI ..... 293-301

*Алимова Нигора Исраиловна*
ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ ........ 302-308

*Mamajonova Gulnoza Karimovna*
IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI ........ 309-313

*Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi*
GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI ........ 314-319

*Norboyev Zafar Abdumuminovich*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI ........ 320-323

*Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna*
QO'L TO'PI O'YINING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI ........ 324-329

*Юсупова Заррина Курбоновна*
УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ........ 330-334

*Ravshanova Xafiza Komilovna*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI ........ 335-340

*Nurbayeva Xolniso Uralovna*
GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA ........ 341-345

*Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 346-351

*Mustayeva Guliston Bo'riboyevna*
TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH........ 348-356

*Ahmedbekova Maxpuzaxon*
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI ........357-362

*Utkirov Abbos Meyliyevich*
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY ........ 363-388

*Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi*
BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI........ 389-393

*Maxliyo Qalandarova*
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI........ 394-399

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 9 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 30 August 2024
**Accepted:** 5 September 2024
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

# PROPAGANDA ACTIVITIES AND SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THE JUDICIAL SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF THE KASHKADARYA REGION)

**Eshimov Shaxridin Xujayorovich**
Judge of Karshi Municipal Court for criminal cases
sh.eshimov@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes the legal propaganda and spiritual and educational work of the judicial system on the example of the Kashkadarya region. The role of the court in enhancing the legal culture of citizens is highlighted, its importance in ensuring justice and the rule of law in society. At the same time, the influence of judicial bodies in the implementation of their spiritual and educational work in society and their influence on social relations were considered.

**Keywords:** judicial system, legal propaganda, spiritual and educational affairs, Kashkadarya region, legal culture, rule of law, social influence, Justice.

# SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG‘IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA’NAVIY – MA’RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Eshimov Shaxridin Xujayorovich**
JIB Qarshi shahar sudining sudyasi
sh.eshimov@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati misolida sud tizimining huquq targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlari tahlil qilingan. Sudning fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirishdagi o‘rni, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, sud organlarining jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarini amalga oshirishdagi ta’siri va ularning ijtimoiy munosabatlarga ko‘rsatgan ta’siri haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sud tizimi, huquq targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, Qashqadaryo viloyati, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, ijtimoiy ta’sir, adolat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N04

**Kirish.** Qashqadaryo viloyati sudlari tomonidan o‘z faoliyati davomida targ‘ibochilik va ma’naviy ma’rifiy sohada o‘rganilayotgan davrda bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, viloyat sudining raisi, o‘rinbosari va mas’ul xodim tomonidan dam olish kunlaridan tashqari haftaning har kuni qabul tashkil qilingan va jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxs vakillarining murojaat qilishlari uchun qulaylik yaratilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasiga muvofiq, belgilangan rasmiy qabul kunlaridan tashqari vaqtlarda uzoq tumanlardan kelgan fuqarolarning o‘z vaqtida qabulini to‘g‘ri uyushtirish maqsadida mas’ul xodimlarning navbatchiligi tashkil qilinganligi bois sudga murojaat qilib kelgan fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligining oldi olindi[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Fuqarolarga vaqt va mablagʻlarini tejash va ularga qulaylik yaratish maqsadida har bir tuman, shahar sudi binosining fuqarolar uchun qulay joyiga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi rahbariyati, viloyat sudi raisi, oʻrinbosari va navbatchi sudyasi hamda jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat sudlari sudyalari malaka hay'atining qabul kunlari haqidagi jadvallar osib qoʻyilgan, belgilangan kun va soatlarda fuqarolarning qabuli tashkil etilgan[3].

Viloyat sudi tomonidan har chorak yakuni boʻyicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini koʻrib chiqish tartibi va uslublari oʻrganilib, umumlashtirish natijalari viloyat sudi rayosatining yigʻilishlarida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilangan.

Qashqadaryo viloyati sudlari tomonidan 2007-yilning birinchi yarmida 100 marotaba aholi oʻrtasida, oʻquv muassasalarida, korxona va tashkilotlarda huquqiy mavzularda ma'ruza va suhbatlar oʻtkazildi, televideniya va radio orqali 3 marotaba chiqish qilindi, 42 marta turli gazetalarda maqolalar berildi[4].

2011-yilda tumanlararo sudining targʻibot faoliyati tekshirilganda bu borada sud tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganligi ya'ni sud tomonidan korxona va tashkilotlarda 8 ta, aholii oʻrtasida 18 ma'ruza va suhbatlar oʻtkazilgan, 1 marta matbuotda chiqish qilinganligi, radio va televideniyeda chiqishlar qilinmaganligi aniqlangan[5].

Qashqadaryo viloyati sudlari tomonidan statistik varaqalari tekshirilganida ayrim kamchiliklar aniqlandi. Masalan, bir kator statistik varakalarning ayrim grafalari toʻliq toʻldirilmagan xususan hal qiluv qarori va ajrimlarning qonuniy kuchga kirgan kuni, ish koʻrishga tayinlangan kun grafalari toʻldirilmaganligi aniqlanib ushbu xolat oʻzurnida bartaraf etildi[6].

Sud kadrlari bilan ishlash ahvoli oʻrganilganda bu borada tegishli kitoblar tutilib yuritib kelinayotganligi, sul kadrlarining shaxsiy yigma jildida ishga qabul qilinuvchilar va ularning yaqin qarindoshlari roʻyxati toʻliq koʻrsatilib, ularning sudlangan-sudlanmaganlik holati tegishli tartibda vakolatli organ tomonidan tekshirilganligi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar mavjudligi aniqlandi[7].

Qashqadaryo viloyati sudlari tomonidan 2011 yilning 1-yarim yilligida sud amaliyoti boʻyicha 12 ta (2010-yilning 1-choragida 9 ta) umumlashtirishlar oʻtkazilgan, 1 marta televideniyeda, 1 marta radioda chiqilgan, 1 marta matbuotda maqola e'lon qilingan[8].

Qashqadaryo viloyati sudlari tomonidan 2018-yilda 1080 marta sayyor sud majlislari oʻtkazilgan boʻlsa, 2019-yilda 1175 ta sayyor sudlar oʻtkazilib, ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilgigiga nisbatan 8 foizga oshgan[9].

2019-yilda Jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat sudlari tomonidan korxona va tashkilotlarda leksiya, suhbat va uchrashuvlar 224 marta, aholi oʻrtasida leksiya, suhbat va uchrashuvlar 1184 marta, 257 marta oʻquv muassasalarida leksiya, suhbat va uchrashuvlar oʻtkazilgan. Bundan tashqari gazeta-jurnallarda 319 marta maqolalar chop etilgan, radiolarda 196 marta, televideniyalarda 257 marta veb-saytlarda esa 157 marta chiqishlar qilingan[10].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13 iyuldagi "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmonining 1-bandiga asosan[11] sudlar faoliyati toʻgʻrisida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning oʻrinbosarlari tomonidan brifinglar oʻtkazish belgilangan, viloyat sudi raisi

tomonidan 2019-yilning 23 yanvar, 13 iyun va 22 noyabr kunlari brifing oʻtkazilgan va Qashqadaryo viloyat televideniyasi orqali efirga uzatilgan[12].

Shuningdek, Jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat sudi raisining 2019-yil 11-sentyabrdagi 9-sonli Farmoyishiga asosan jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat, tuman va shahar sudlari sudyalarining va sud xodimlarining ishlarini samarali tashkil etish, namunali faoliyat yuritayotgan sudyalar va sud xodimlarini aniqlash hamda ularni munosib ragʻbatlantirish, lavozimiga ilk marta tayinlangan sudyalarda va sud sohasiga yangi ishga qabul qilingan xodimlarda odil sudlov sohasiga oid koʻnikmalarni hosil qilish, sud prosessini oʻtkazish tartibini mukammal oʻrgatish, ularning ish faoliyatlarini namunali tashkil etishlariga amaliy yordam koʻrsatish, sudya va sud xodimlarining oʻz faoliyatlarini amalga oshirishda ularning sohaning yetuk mutaxassislari boʻlib yetishishlari uchun koʻmaklashish orqali ularni xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirib borish maqsadida mahorat maktabi “Master klass” tadbiri hamda viloyat sudi raisining 2019 yil 11 sentyabrdagi 10-sonli Farmoyishiga asosan sudya va sud xodimlarining nazariy bilimlarini mukamallashtirib borish maqsadida “Sud bilimdoni” tadbiri tashkil etildi[13].

**Tahlil va natijalar.** Jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat, tuman va shahar sudlari sudyalari va sud xodimlarining ishtirokida har haftada ikki marotaba, ikkinchi mashgʻulotni haftaning shanba kuniga belgilab, bir sudyadan iborat yakka tartibda va uch sudyadan iborat tarkibda alohida-alohida rejaga asosan birinchi instansiya, apellyasiya va kassatsiya instansiyalarida namunali sud prosessini oʻtkazish boʻyicha mahorat maktabi “Master klass” tadbiri oʻtkazildi[14].

Dastur ijrosining xalqaro standartlarga mosligini va jozibadorligini taʼminlash, xalqaro normalarga mos keladigan maxsus liboslarining (kiyimlarining) oʻzimizning milliy qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda xalqaro standartlarga mosligini taʼminlash maqsadida dizayner-modelyerlarni jalb qilingan holda sudyalar libosi (mantiya) hamda prokuror va himoyachilarning maxsus libosi (kiyimi) namunalari ishlab chiqilildi va har bir sudyaning oʻzining roziligi bilan oʻzining hisobidan liboslar tiktirildi “Master klass” mashgʻulotlari sudya libosida (mantiya) hamda davlat ayblovchisi va himoyachilar ham maxsus libosda (kiyimda) oʻtkazildi[15].

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilmagan boʻlsa-da, sud prosessi oʻtkazishning xalqaro standartlarga mosligiga koʻnikmani hosil qilib borish maqsadida sudyalarning sud prosessi faoliyatini amalga oshirish jarayonida sud binosida sudyalarning, xalq maslahatchilarining va sud prosessining boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini hamda sud binosida jamoat tartibini saqlashni amalga oshirish uchun “Master klass” tadbirini oʻtkazishda sud prosessini Sud pristavlarining ishtirokida oʻtkazish yoʻlga qoʻyildi.

Mazkur dasturni xolisona, adolatli, begʻaraz oʻtkazish va gʻoliblarni aniqlash maqsadida alohida reja asosida viloyatdagi Oliy oʻquv yurtlari va Yuridik kollej professor oʻqituvchilari, Sud faxriylari, Prokuratura, Ichki ishlar organi, Advokatlar palatasi, Xalq deputatlari kengashi, Yozuvchilar uyushmasi, “Nuroniy” jamgʻarmasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Xotin-qizlar qoʻmitasi, Yoshlar ittifoqi, Mahalla fuqarolar yigʻini, Ommaviy axborot vositlari vakillaridan iborat boʻlgan hayʼat aʼzolari tashkil etildi, ularning ichidan rais saylab olindi. Shuningdek, alohida ishchi guruhi tashkil qilinib, bevosita joylarga chiqilgan holda hamda anonim soʻrovnomalarga asosan namunali sud raisi, devonxona mudiri, arxiv mudiri va sud majlisi kotiblari nominatsiyasi boʻyicha gʻoliblar aniqlandi[16].

2019-yil 21-noyabr kuni esa jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat, tuman va shahar sudlari sudyalari va sud xodimlarining nazariy bilimlarini aniqlash maqsadida “Sud bilimdoni” tadbiri oʻtkazildi.

“Sud bilimdoni” tadbiri “Sud bilimdoni-sudya” va “Sud bilimdoni-sud xodimi” koʻrinishda “0” dan “100” gacha boʻlgan baholash ball sistemasida sudya va sud xodimlarining nafaqat Jinoyat, Jinoyat-prosessual qonunchilikdagi yoki Oliy sud Plenumi qarorlari boʻyicha nazariy bilimlarini sinovdan oʻtkazishni, shuningdek ularning Axborot texnologiyasi, Kompyuter texnologiyasi va Elektron hukumat sohasidagi bilimlarini ham Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filialida test topshirish orqali sinovdan oʻtkazishni nazarda tutdi. Asosiy maqsad esa, sudya va sud xodimlarining oʻz faoliyatlarini amalga oshirishda ularning sohaning yetuk mutaxassislari boʻlib yetishishlari uchun koʻmaklashish orqali ularni xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirib borishdan iborat qilib belgilandi.

Jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat, tuman va shahar sudlari sudyalari va sud xodimlari ishtirokida tashkil etilgan “Master klass” hamda “Sud bilimdoni” tadbirlari yakunlari yuzasidan 2019-yil 30-noyabr kuni Qashqadaryo viloyat Madaniyat markazida gʻoliblarni tantanali taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi[17].

Tadbir yakunlari boʻyicha “Master klass” tadbiri gʻoliblari va birinchi, apellyasiya, kassatsiya instansiyalarida sud prosessini eng namunali oʻtkazgan sudyalar, eng namunali davlat ayblovchisi, himoyachi, jabrlanuvchining qonuniy vakili, jabrlanuvchining vakili, shuningdek, eng namunali tuman, shahar sudi raisi, devonxona mudiri, arxiv mudiri, sud majlisi kotiblari, hamda sud bilimdonlari kabi 40ta nominatsiya boʻyicha gʻoliblar aniqlandi. Gʻoliblarni taqdirlashda, diplomdan tashqari har bir gʻolib boʻlgan sudya va sud xodimiga kitob ham sovgʻa qilindi, yana bir maqsad, Prezidentimizning Yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish, ular oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi toʻrtinchi tashabbus maqsadlarini ham amalga oshirishga qaratildi. Tadbir Ommaviy axborot vositalari orqali keng xalq ommasiga yetkazildi[18].

**Muhokama.** Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Sudlar toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini taʼminlashga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, jinoyat ishlari boʻyicha Qashqadaryo viloyat sudining sudyalari xalqimiz fikrini inobatga olgan holda adolatli qarorlar chiqarishni oʻzlarining asosiy vazifalari ekanligini toʻligʻicha anglab yetdilar. Insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni qonunlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquqiy xulq-atvorini shakllanishida, targʻibot va tashviqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi hamda sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini bilish, uning mohiyatini tushunish shaxsning jinoyat sodir etishdan tiyilishiga sabab boʻladi[19].

2021-yilda iqtisodiy sud sudyalari tomonidan aholiga qonunlarni tushuntirish, amaldagi qonunchilikni keng jamoatchilik oʻrtasida targʻib qilish hamda qoidabuzarliklarni oldini olish yuzasidan jami 581 marotaba (2020-yilda 271ta) targʻibot ishlari olib borilgan, ommaviy axborot vositalarida 251ta (126), shu jumladan: televideniyeda 42ta (27), radioda 50ta (25), matbuotda 97ta (53) va veb-sayt va boshqa axborot vositalarida 62ta (21) chiqishlar qilingan[20].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mah kamasining 12.05.2022-yildagi 259-sonli qarori bilan “2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida” qarori eʼlon qilindi[21].

2023-yilda Sudlar tomonidan 458 marta turli huquqiy mavzularda leksiya, uchrashuv va suhbatlar o‘tkazilgan, 67 marta televideniyeda, 50 marta radioda chiqishlar qilingan, 20 marta matbuotda maqolalar e’lon qilingan, 8ta veb-sayt va boshqa axborot vositalarida chiqishlar qilingan, shuningdek 1.688 ta yoki 8,5 foiz fuqarolik ishlari sayyor sud majlislarida ko‘rilgan. Sudlar tomonidan ko‘rilgan fuqarolik ishlari yuzasidan 314 ta xususiy ajrimlar chiqarilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyati sudlari o‘zlarining sud-huquq organlari tizimidagi faoliyati bilan bir qatorda ma’naviy va ma’rifiy sohada ham samarali faoliyat olib bordi. Bu esa o’z navbatida ijtimoiy sohada, xususan ta’lim va aholi o’rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada mustahkamlashga, qonunchilikni aholi o’rtasida keng targ’ib qilish, ularda huquqiy ong va huquqiy bilimni yanada oshishiga xizmat qiladi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Жиноят ишлари бўйича қашқадарё вилояти, туман (шаҳар) судлари томонидан 2007 йилнинг биринчи ярми давомида амалга оширган ишлари ҳақида Ахборот.
2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 977-модда // https://lex.uz/docs/3336169
3. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти.
4. Жиноят ишлари бўйича қашқадарё вилояти, туман (шаҳар) судлари томонидан 2007 йилнинг биринчи ярми давомида амалга оширган ишлари ҳақида Ахборот.
5. Қашқадарё вилоят архиви, М-611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 35-варақ
6. Қашқадарё вилоят архиви, М-611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 35-варақ
7. Қашқадарё вилоят архиви, М-611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 36-варақ
8. Қашқадарё вилоят архиви, М-611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 115-варақ
9. Жиноят ишлари бўйича Қашқадарё вилоят судининг раиси Махкамов Абдуқаюм Махкамовичнинг жиноят ишлари бўйича судлар томонидан 2019 йилда одил судлов борасида амалга оширган ишлари юзасидан Халқ депутатлари Қашқадарё вилоят Кенгашидаги А Х Б О Р О Т И
10. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти.
11. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.07.2018 й., 06/18/5482/1506-сон
12. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти.
13. Жиноят ишлари бўйича Қашқадарё вилоят судининг раиси Махкамов Абдуқаюм Махкамовичнинг жиноят ишлари бўйича судлар томонидан 2019 йилда одил судлов борасида амалга оширган ишлари юзасидан Халқ депутатлари Қашқадарё вилоят Кенгашидаги АХБОРОТИ
14. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти, 2019 йилда қилинган ишлар юзасидан ҳисобот папкаси, 23-варақ.
15. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти, 2019 йилда қилинган ишлар юзасидан ҳисобот папкаси, 24-варақ.
16. Жиноят ишлари бўйича Қашқадарё вилоят судининг раиси Махкамов Абдуқаюм Махкамовичнинг жиноят ишлари бўйича судлар томонидан 2019 йилда одил судлов борасида амалга оширган ишлари юзасидан Халқ депутатлари Қашқадарё вилоят Кенгашидаги АХБОРОТИ\
17. Суд билимдони // Qashqadaryo газетаси, 2019 йил 1 декабрь.
18. Қашқадарё вилоят суди жорий архиви маълумоти
19. Шодиев Р., Муродов Д. Хуқуқий тарғибот – хуқуқий саводхонликнинг муҳим омили сифатида // «Одил судлов», - № 6 / 2023. 59 – 61-бетлар.

20. Қашқадарё вилоят судларининг 2021 йил давомида одил судлов борасида амалга оширилган ишлар юзасидан М А Ъ Л У М О Т
21. Шодиев Р., Муродов Д. Хуқуқий тарғибот – хуқуқий саводхонликнинг муҳим омили сифатида // «Одил судлов», - № 6 / 2023. 59 – 61-бетлар.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).